

Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Bahodir Ahmedov, O'zbekiston respublikasi san'at arbobi Rustam Shamsiddinovlar ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Bahodir Ahmedov, O'zbekiston respublikasi san'at arbobi Rustam Shamsiddinovlar ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvni institut rektori Ibrohim Yo'ldoshev olib bordi.



Xabaringiz bor, joriy yilda Qozog'istonning Nursulton shahrida MDH davlatlari o'rtasida "Yilning eng yaxshi yosh olimi-2021" xalqaro tanlovi bo'lib o'tdi.



0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 2-bosqich talabasi Shohida Shovqiyeva "Yilning eng yaxshi yosh olimi-2021" xalqaro tanlovida pedagogika, psixologiya yo'nalishi bo'yicha faxrli 1-o'rinni, 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 3-bosqich talabasi Doston Hamidov esa "Yilning eng yaxshi yosh olimi-2021" xalqaro tanlovida madaniy siyosat yo'nalishi bo'yicha faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritib, har ikkala talabamiz ham birinchi darajali diplom hamda, ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



Dastlab ushbu tanlov g'oliblariga diplom va ko'krak nishonlari tantanali ravishda topshirildi.

Shundan keyin so'zga chiqqan Bahodir Amedov madaniyat, san'at sohasining o'ziga xos jihatlari haqida to'xtaldi va bugungi yoshlarni ushbu kasbga sadoqat bilan yondashishga chaqirdi. Umrning har lahzasidan samarali foydalanish haqida gapirdi. Qalb pokligi oliy qadriyat ekanligini aytdi.



Ustoz san'atkorlar tomonidan yaratilgan boy madaniy, ma'naviy meros, O'zbekistonda kino sohasida yaratilgan maktabni kelgusi avlodlarga yetkazish bora fikr-mulohazalarini bildirdi. Samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda Bahodir Ahmedov O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligini munosib kutib olish, ushbu tadbirda institut talabalari ham faol qatnashishi borasida ular oldida turgan vazifalarga e'tiborni qaratdi.



Soʻzga chiqqan Rustam Shamsiddinov davlat tadbirlarini tashkil etish borasida institut jamoasining fikri bilan qiziqdi. Ushbu jarayonlarda talabalarni ham faol ishtirok etishga chaqirdi. Kelgusida xorijiy davlatlarda oʻtkaziladigan shu kabi tadbirlarni oʻrganish, jarayonlarni bevosita kuzatish maqsadida yoshlarni chet ellarga joʻnatish rejasi borligini aytdi.



Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbir uchun talabalar o'rtasida "Eng yaxshi ssenariylar muallifi" tanlovini o'tkazish taklifi berildi. Ochiq, samimiy tarzda kechgan uchrashuvda davlat tadbirida ssenariysidan foydalanilgan talaba 10 million so'm miqdoridagi pul mablag'i bilan rag'batlantirilishi e'lon qilindi.

Matbuot kotibi